

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM VA ROL O‘YINLARI VA IJTIMOIIY MASHQLAR ORQALI TALABALARNING YETAKCHILIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Risvayeva Charos Zaydilla qizi

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy Xavfsizlik va mudofaa Universiteti,

Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti Tillar kafedrası katta o‘qituvchisi, p.f.f.d, (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida talabalarda liderlik sifatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosidagi samarali yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda liderlik tushunchasining ijtimoiy-psixologik mohiyati ochib berilib, yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy jarayonni pedagogik texnologiya asosida loyihalashning ahamiyati asoslanadi. Shuningdek, innovatsion ta’lim shakllari, rol o‘yinlari, guruhli faoliyat va interfaol metodlarning talabalarda maqsadlilik, tashabbuskorlik, mas’uliyat, kommunikativ kompetensiya va tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o‘rni yoritib beriladi. Maqolada oliy ta’lim tizimida liderlik kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Liderlik, yetakchilik kompetensiyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta’lim, guruhli ta’lim, interfaol metodlar, talaba faolligi.

ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОЕ ОБУЧЕНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ РОЛЕВЫХ ИГР И СОЦИАЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ В РАЗВИТИИ ЛИДЕРСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические механизмы формирования лидерских качеств у студентов в условиях современного высшего образования на основе личностно-ориентированного подхода. Раскрывается социально-психологическая сущность лидерства и обосновывается значимость проектирования воспитательно-образовательного процесса с использованием современных педагогических технологий. Особое внимание уделяется инновационным формам обучения, ролевым играм, групповым видам деятельности и интерактивным методам как эффективным средствам развития у студентов целеустремлённости, инициативности, ответственности, коммуникативной компетентности и организаторских способностей. В работе представлены практические рекомендации по развитию лидерской компетентности в системе высшего образования.

Ключевые слова: Лидерство, лидерская компетентность, личностно-ориентированное обучение, педагогические технологии, инновационное обучение, групповое обучение, интерактивные методы, активность студентов.

THE IMPORTANCE OF PERSONALITY-ORIENTED LEARNING AND ROLE-PLAYING AND SOCIAL ACTIVITIES IN DEVELOPING STUDENTS' LEADERSHIP SKILLS

Abstract: This article examines pedagogical mechanisms for developing leadership qualities among students in modern higher education institutions, with a focus on learner-centered approaches. The social and psychological essence of leadership is analyzed, and the

significance of designing educational processes aimed at fostering leadership qualities through well-structured pedagogical technologies is substantiated. Particular attention is paid to innovative forms of instruction, role-playing activities, group-based learning, and interactive methods as effective tools for developing goal orientation, initiative, responsibility, communicative competence, and organizational skills in students. The paper also offers practical recommendations for enhancing leadership competence within the higher education system.

Keywords: Leadership, leadership competence, learner-centered education, pedagogical technologies, innovative education, collaborative learning, interactive methods, student engagement.

Kirish. Bugungi kunda yoshlar orasida liderlik fazilatlarini shakllantirish ta'lim muassasalaridagi o'quv va darsdan tashqari faoliyatda, yoshlar birlashmalarida olib borilayotgan ishlar, korxonalar faoliyatida ishtirok etish, shuningdek, turli tadbirlarda qatnashish orqali har tomonlama rivojlanmoqda. Shu bilan birga, liderlik sifatlarining ahamiyati yuqori bo'lishiga qaramay, amaliyotda ularni shakllantirishga yetarlicha e'tibor berilmayapti.

Adabiyotlar tahlili. Liderlikni shakllantirish borasida V.A.Vindilovich, Ye.A. Levanova, A.B. Seryx, T.V.Pushkaryova, L.V.Tregubova, Ye.O.Tarasova va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Talabalarda liderlik sifatlarini shakllantirishdagi muhim shartlardan biri — bu yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy jarayonni pedagogik jihatdan to'g'ri va puxta loyihalangan texnologiya asosida tashkil etishdir. Bu texnologiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: faoliyatning konseptual asoslarini belgilash, chuqur o'ylangan pedagogik model yaratish va kompleks maqsadli dasturni ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi: Zamonaviy oliy ta'limda talabalar orasida liderlik sifatlarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanib, bu jarayon talabalarni turli faoliyat turlariga jalb etish orqali amalga oshiriladi. Ushbu faoliyat turlari yosh avlodda quyidagi yetakchilik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi: maqsadlilik, muloqotga kirishish va hamkorlik qilish qobiliyati, mas'uliyat, faollik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik va boshqalar.

Demak, liderlik — bu guruh faoliyatini integratsiyalashuvini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri bo'lib, bunda shaxs lider sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni guruh a'zolarining harakatlarini birlashtiradi, yo'naltiradi va ularning qo'llab-quvvatloviga sazovor bo'ladi. Liderlik tushunchasi qisman "boshqaruv" va "rahbarlik" atamaları bilan o'xshashlikka ega bo'lsa-da, u guruh yoki tashkilot ichidagi o'ziga xos munosabatlar shakli sifatida ajralib turadi. G'arb ijtimoiy psixologiyasidagi liderlikka oid ta'riflarning umumiy jihati shundan iboratki, ular liderning guruh a'zolarini umumiy maqsad sari rag'batlantirishdagi faol rolini asosiy omil sifatida e'tirof etadi. Shu ma'noda lider — bu guruhning qadriyatları va me'yorlarini o'z faoliyatida maksimal darajada aks ettiruvchi va ularni amalga oshirishga yaqin turgan shaxsdir.

Tahlil va natijalar. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim zamonaviy pedagogikaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu yondashuv yoshlarda yetakchilik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishda ayniqsa samaralidir. Chunki

yetakchilik – bu individual tashabbus, mustaqil fikrlash, kommunikativ ko‘nikmalar va mas’uliyatlilik kabi sifatlarni o‘z ichiga oladi. Quyida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida ushbu qobiliyatni rivojlantirishning samarali usuli keltirilgan:

1. Rol o‘yinlari va ijtimoiy mashqlar. “*Lider–jamo*”, “*Murabbiy–shogird*”, “*Muzokarachi–qarshilik ko‘rsatuvchi*” kabi rollarda o‘ynash orqali o‘quvchilar muomala yuritish, boshqaruv, muammo hal qilish kabi qobiliyatlarni rivojlantiradilar. Bu metodlar hissiy-ijtimoiy tafakkur va empatiyani kuchaytiradi.

Ta’lim jarayonida innovatsion tashkil etish shakllarini qo‘llash orqali talabalar real ijodiy faoliyatga jalb etiladi, bu esa ularni faqat yangiligi bilan emas, balki mustaqil ish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni anglash va mavjud ziddiyatlarni hal qilish zarurati bilan ham jalb etadi. Zamonaviy oliy ta’lim rivojlanishini ikki asosiy yo‘nalish tavsiflaydi:

- *uzluksizlik – bu ta’lim siyosatining kontseptual asosi sifatida;*
- *talabaning shaxsiy salohiyatini faollashtirish orqali ta’lim sifati oshirilishi, bu jarayon esa guruhli (jamoaviy) ta’lim shakllari bilan uyg‘unlikda olib boriladi.*

Innovatsion shakldagi ta’limiy faoliyatni tashkil etish metodlari talabalarning faolligi, muloqotga ochiqqligi, kasbiy kompetensiyasi va mustaqil qaror qabul qilish, shaxsiy dunyoqarashi va ish uslubini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Bunday yondashuv orqali talabalar real ijodiy faoliyatga jalb qilinadi, bu esa nafaqat ta’limiy vaziyatlarga qiziqish uyg‘otadi, balki ular mustaqil ishlash jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“*Innovatsion ichki o‘yin*” metodida esa asosiy e’tibor o‘quvchining individual salohiyati, istaklari va shaxsiy tarixiga qaratiladi. An’anaviy yondashuvda diqqat markazida dars mazmuni tursa, bu metodda o‘qituvchi o‘z bilimlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rgatmaydi, balki o‘quvchining bilimga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi, uning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. O‘qituvchi bu yerda murabbiy rolini bajaradi: u o‘yin jarayonining bevosita ishtirokchisi emas, balki o‘z-o‘zini anglash va bilim egallash muhitini yaratib beradi. Bu o‘yinlar ma’lum tartib va qoidalarga asoslangan bo‘lib, o‘ziga xos maqsad va yo‘nalishga ega. Shu sababli, talabalarning mustaqil ta’limiy faoliyatini guruh shaklida tashkil etish juda samarali usuldir. Bu shakl ularning intellektual, ijodiy, tahliliy va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Guruhli raqobatga asoslangan ta’lim shakli orqali talabalar mustaqil bilim olishni, o‘zini takomillashtirishni o‘rganadi, kompetentli kadrlar bo‘lib shakllanadi. Bu metod orqali talabalar nafaqat kasbiy faoliyatga tayyorlanadi, balki doimiy o‘qib-o‘rganishga tayyor bo‘lib, bilim olish jarayonining faollashuvi, tafakkurning rivojlanishi ta’minlanadi. Bu esa zamonaviy axborotga boy global jamiyatda ta’lim va kasbiy faoliyat yuritish uchun muhim omil hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, shaxsda liderlik sifatlarini shakllantirish va tarbiyalash jarayoni, avvalo, o‘quvchilarga qulay va psixologik jihatdan ijobiy muhitda kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni muvaffaqiyatli egallash imkonini beruvchi muayyan pedagogik sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

Umuman olganda, lider – bu guruh doirasida faoliyatni boshqarish va muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilgan yoki belgilangan rasmiy rahbar bo‘lmagan taqdirda ham mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan shaxsdir.

Yetakchilik fazilatlari – bu rahbarning boshqalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishi, psixologik xususiyatlari va qobiliyatlarining majmui bo‘lib, ushbu shaxsning guruh tomonidan lider sifatida tan olinishi va liderlik funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Albano, J. (2000). Adaptive Leadership in Education. Educational Leadership Journal; Heifetz, R.A., & Linsky, M. (2002). Leadership on the Line: Staying Alive Through the Dangers of Leading. Harvard Business Review Press.
2. Богоявленская Д.Б. К вопросу о дивергентном мышлении / Д.Б. Богоявленская, И.А. Сукоколова // Психологическая наука и образование. – 2006. – № 1. – С. 85–95.
3. Черный Е.В. Тренинг в системе поликультурного образования / Е.В. Черный // Гуманитарные науки. – 2006. – № 2. – С. 143–148.